

“O’zmetkombinat” AJ aksiyadorlarining
umumiy yig’ilishi qarori bilan
TASDIQLANGAN
2016 yil 25 iyundagi 33- sonli bayonnoma
Gerbli muhr

**“O’ZMETKOMBINAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
ICHKI NAZORATI
TO’G’RISIDA NIZOM**

MUNDARIJA

I.	UMUMIY QOIDALAR	3
II.	ICHKI NAZORAT TIZIMINING TAVSIFI VA MAQSADI	3
III.	ICHKI NAZORAT TIZIMINING ISHLASH TAMOYILLARI	3
IV.	ICHKI NAZORAT TIZIMI KOMPONENTLARI	4
V.	ICHKI NAZORAT UCHUN MA'SUL ORGAN VA SHAXSLAR	4
VI.	ICHKI NAZORAT AMALIYOTLARI VA USULLARI	6
VII.	YAKUNIY QOIDALAR	6

I. UMUMIY QOIDALAR

1. “O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o’rinlarda - Jamiyat) ichki nazorati to’g’risidagi ushbu Nizom (keyingi o’rinlarda – Nizom), O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samarasini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish qo’mitasining 31.12.2015 yildagi yig’ilishining 9- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ Boshqaruv Kodeksi, va Jamiyatning ichki hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan.
2. Ushbu Nizom ichki nazorat tizimi maqsadi va vazifalarini, uning ish tamoyillarini, shuningdek, ichki nazorat uchun ma’sul Jamiyat organlari va shaxslari belgilaydi.

II. ICHKI NAZORAT TIZIMINING TAVSIFI VA MAQSADI

3. Ichki nazorat bu – Jamiyat faoliyatiga biriktirilgan va quyidagi sohalarida Jamiyat maqsadlariga erishish uchun asosli va etarli tasdiqni olish maqsadida havfni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun yo’naltirilgan, doimiy ravishda ishlaydigan jarayon:
 - Faoliyat samaradorligi va unumdorligi, shu jumladan, ish samaradorligi darajasi, daromad olish va aktivlarni himoya qilish;
 - Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va aniqligi;
 - Jamiyat faoliyatini yo’lga qo’yuvchi qonunchilik va huquq normalariga mos kelishi.
4. Ichki nazorat tizimi bu – ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, jamiyatda taftish qo’mitasi, ichki audit xizmati, kuzatuv kengashi, ijroiya organ va boshqa hodimlar tomonidan barcha darajalarda (matn bo’yicha ichki audit sub’yektlari) va barcha vazifalari bo’yicha tashkiliy tuzilma, nazorat chora va jarayonlari, ichki nazorat usullari birikmasi hisoblanadi. AJ ichki nazorat organlari a’zolari malakasi, ular to’g’risidagi Nizomda belgilanishi mumkin.
5. Ichki nazorat amaliyotlari bu – moliyaviy – xo’jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlarida qoidabuzarliklarni aniqlashga, qo’yilgan maqsadlarga erishishda samaradorlikni baholash, shuningdek, ichki nazoratni amalga oshirishda ichki nazorat subyektlarini o’zaro hamkorlikka yo’naltirilgan, Jamiyat taftish qo’mitasi, jamiyatning audit bo’yicha kuzatuv kengashi qo’mitasi, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyat ijroiya organi, shuningdek, ichki nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega Jamiyat bo’linmalari (keyingi o’rinlarda – Jamiyat bo’linmalari) tomonidan bajariladigan choralardir.
6. Ichki nazoratning asosiy vazifasi barcha aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini ta’minlashdir.
7. Ichki nazorat operativ rejimda quyidagilarni ta’minlashi kerak:
 - Aktivlarni saqlash, Jamiyat zahiralardan tejamkorlik bilan va samarali foydalanish;
 - Amaldagi qonunchilik va jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;
 - Jamiyatning o’rta va uzoq muddatga rivojlanish strategiyasi va Jamiyat biznes – rejalarini bajarish;
 - Jamiyat bugalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobot va boshqaruv ma’lumotlari to’liqligi va ishonchliligi;
 - Jamiyat faoliyati davomida havflar paydo bo’lgan davrda ularni aniqlash, identifikatsiya va tahlil qilish;
 - Jamiyat faoliyati davomida havflarni re’jalashtirish va boshqarish, shu jumladan, havflarni boshqarish bo’yicha o’z vaqtida va to’g’ri qarorlar qabul qilish;
 - Ishbilarmon doiralarda va iste’molchilar orasida Jamiyatni yaxshi mavqeini o’rnatish va saqlab turish;
 - Ijroiya organ, kuzatuv kengashi va taftish qo’mitasi a’zolariga haqqoniy, ochiq va obyektiv ravishda to’lov va kompensatsiya to’lash.

III. ICHKI NAZORAT TIZIMINING ISHLASH TAMOYILLARI

8. Ichki nazorat tizimi Jamiyatda quyidagi tamoyillar asosida quriladi:
 - To’xtalishsiz ishlash – ichki nazorat tizimini doimiy va kerakli ravishda ishlashi, Jamiyatga normadan har qanday chetlashuvni o’z vaqtida aniqlashga va ularni kelajakda paydo bo’lishini oldini olish imkonini beradi;

Ichki nazorat tizimining barcha ishtirokchilari hisobdorligi – har bir shaxs tomonidan bajarilgan nazorat ishlari sifati ichki nazorat tizimining boshqa qatnashchisi tomonidan nazorat qilinadi;

Majburiyatlarni bo'lish – jamiyat nazorat vazifalarini takrorlamaslikka harakat qiladi va bu vazifalar ishchilar orasida shunday taqsimlanishi kerak-ki, bunda muayyan aktivlar bilan amaliyotlarni tasdiqlash, amaliyotlarni hisobga olish, aktivlar butunligini ta'minlash va ularni inventarizatsiyasini o'tqazish bilan bog'liq vazifalar bir shaxsga yuklatilmasligi kerak;

Amaliyotlarni kerakli tarzda maqullash va tasdiqlash- Jamiyatning barcha moliyaviy – xo'jalik amaliyotlarini vakolatli shaxslar tomonidan mavjud vakolatlari doirasida tasdiqlash tartibini belgilashga intiladi;

Kunlik ichki nazoratni amalga oshiruvchi, Jamiyat bo'linmalarini tashkiliy yakka-likini ta'minlash va uni audit qo'mitasi orqali to'g'ridan to'g'ri Kuzatuv kengashiga funksional hisobdorligini ta'minlash;

Jamiyatda ishlovchi barcha ichki nazorat sub'ektlarini nazorat vazifalarini to'g'ri bajarish uchun ma'suliyati;

Jamiyatning barcha bo'linmalarini aniq o'zaro hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;
Doimiy rivojlanish va takomillashish

Yangi masalalarni yechish, tizimni kengaytirish va takomillashtirish zaruriyatini hisobga olgan holda, moslashish maqsadida, ichki nazorat tizimini qulay ravishda rostdashi uchun, Jamiyat sharoitlar yaratishga intiladi;

Chetlashuvlar haqida o'z vaqtida ma'lumot berish – chetlashuvlarni bartaraf qilish haqidagi qaror qabul qilish vakolatiga ega shaxslarga kerakli ma'lumotlarni berishning maksimal qisqa muddatlari Jamiyatda belgilangan;

Nazorat yo'lga qo'yilayotgan Jamiyat faoliyatining ustuvor sohalarini belgilash – ishlash samaradorligini ("harajatlar – iqtisodiy ta'siri") o'lchash qiyin bo'lsa ham, ichki nazorat tizimi bilan qoplanadigan strategik yo'nalishlar belgilanadi.

IV. ICHKI NAZORAT TIZIMI KOMPONENTLARI

9. Ichki nazorat tizimi quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi:

estetik qimmati va Jamiyat xodimlari malakasi, rahbariyat siyosati, rahbariyat tomonidan vakolat va ma'suliyatlarni taqsimlash usuli, tashkiliy tuzilma va xodimlar malakasini oshirish, shuningdek, kuzatuv kengashi tomonidan rahbarlik va boshqaruvni o'z ichiga oluvchi nazorat muhiti;

xavflarni baholash – turli darajalarda o'zaro bog'langan va ichki ketma-ketlikka ega bo'lgan muayyan masalalarga erishishda, mos xavflarni identifikatsiya va tahlil qilishdir;

boshqaruv qarorlari bajarilishini ta'minlashga ko'maklashadigan, rozilik, tasdiq berish, tekshiruv o'tkazish, joriy faoliyatni nazorat qilish, aktivlar havfsizligi kafolati va vakolatlarni taqsimlash kabi turli hil amaliyotlarni o'z ichiga oladigan, siyosat va amaliyotlarni umumlashtiradigan, nazorat bo'yicha faoliyat;

barcha ichki nazorat subyektlarida jamiyatda qabul qilingan ichki nazorat va uni ta'minlash siyosati va amaliyotlari bo'yicha tushuncha shakllantirish maqsadida, ma'lumotlarni samarali almashish kanallarini yaratishni o'z ichiga oladigan, ma'lumotlarni o'z vaqtida va samarali aniqlash, ularni ro'yxatga olish va almashishga yo'naltirilgan, ma'lumotlar bilan ta'minlash va almashinish faoliyati. Jamiyat ma'lumotlarga ruhsatsiz kirishni oldini oluvchi choralar ko'radi;

Monitoring bu – uning davomida vaqt o'tishi bilan tizim ishining sifati baholanadigan, nazorat va boshqaruv vazifalarini o'z ichiga oladigan jarayondir. Ichki nazorat tizimini baholash, moliyaviy hisobot aniqligiga ta'sir ko'rsatuvchi xatolar paydo bo'lish ehtimolini, bunday hatoliklarni muhimligini aniqlash va ichki nazorat tizimini qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini aniqlash uchun o'tkaziladi. Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash uchun, aksiyadolar umumiy majlisi qarori bilan va Kuzatuv kengashi taklifi asosida AJ ga mustaqil professional tashkilot – maslahatchi jalb qilinishi mumkin.

V. ICHKI NAZORAT UCHUN MA'SUL ORGAN VA SHAXSLAR

10. Ichki nazorat taftish qo'mitasi, kuzatuv kengashi qoshidagi audit qo'mitasi, Jamiyat kuzatuv kengashi, ijroiya organ rahbari ichki audit xizmati, shuningdek, barcha darajadagi boshqa

hodimlar tomonidan amalga oshiriladi, bunda har biri ichki nazorat uchun o'rnatilgan tartibda ma'suldir.

11. Jamiyatda faoliyat yuritadigan bo'linmalar vazifalari, huquq va majburiyatlari, ma'suliyati, ularga to'lanadigan kompensatsiya va to'lovlarni hisoblash tartibi, Jamiyat ichki hujjatlarida belgilangan. Ushbu hujjatlar, shuningdek, ichki nazorat masalalariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa hujjatlar ushbu Nizomga zid kelmasligi kerak.
12. Jamiyatning moliyaviy – xo'jalik faoliyati ustidan muntazam nazoratni ta'minlash maqsadida, ichki nazorat amaliyotlarini o'tkazish – Jamiyatning vakolatli bo'linmalari – ichki audit xizmati, bunday xizmat bo'lmagan hollarda, ichki nazorat uchun ma'sul bo'lgan Jamiyatning taftish qo'mitasi tomonidan, Jamiyatning boshqa organ va bo'linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi .

13. Kuzatuv kengashi vazifalariga quyidagilar kiradi:

Rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va ichki nazorat tizimining muayyan amaliyot va strategiyalarini tasdiqlash;

Moliyaviy nazorat, operatsion nazorat, qonunchilikka rioya qilinishi nazorati , ichki siyosat va amaliyotlar nazoratini o'z ichiga oluvchi ichki nazoratning barcha yo'nalishlari bo'yicha, Jamiyat ijroiya organi rahbari, ichki va tashqi auditlar, taftish qo'mitasining muntazam hisobotlari ma'lumotlari, boshqa manbalar va shaxsiy kuzatuvlari asosida, ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligini baholash va tahlili natijalarini aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida har yili e'lon qilish;

Ichki nazorat uchun ma'sul, Jamiyat bo'linmalarining tuzilishi va tarkibini aniqlash;

Ichki nazorat amaliyotlarini doimiy ravishda yaxshilash.

14. Jamiyat ichki nazorati sohasidagi, kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatiga ko'ra, uning faoliyat yuritishi ijroiya organi rahbari zimmasiga yuklatiladi. Jamiyat ijroiya organi rahbari Jamiyatning barcha havflari, ichki nazorat tizimidagi ahamiyatli kamchiliklar, shuningdek, ularni bartaraf qilish rejalari va natijalari haqida kuzatuv kengashini o'z vaqtida ogohlantirish orqali ichki nazorat tizimi amaliyotlarini joriy qiladi va uning samarali foyiatini ta'minlaydi.
15. Har qanday darajadagi bo'linmalar xodimlar (shu jumladan rahbarlar) o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish bo'yicha strategiya va amaliyotlarni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etishadi. Ularning vazifalariga nostandart vaziyatlar va muammolarni ular paydo bo'lgan vaqtda hal qilish kiradi. Ahamiyatli masalalar yoki muayyan bir bitim natijasida kelib chiqqan havf haqida hodimlar Jamiyatning yuqori turuvchi rahbariyatiga ma'lum qilishadi.
16. Jamiyat va uning alohida bo'linmalarining moliyaviy – xo'jalik faoliyatini nazorat qilish – ichki nazoratning doimiy faoliyat yurituvchi organi – Taftish qo'mitasiga yuklatiladi, uning ahamiyati, maqsadi, vazifalari va vakolatlari Taftish qo'mitasi nizomida ko'rsatilgan.
17. Jamiyatda amalga oshirilayotgan moliyaviy – xo'jalik amaliyotlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga mos kelishi kabi, ichki nazorat amaliyotlarini bajarilishi, uning alohida bo'linmalari, shuningdek, bugalteriya va moliyaviy hisobotlarini to'liq va aniqligini doimiy ravishda nazorat qilish uchun ichki audit xizmati ma'suldir, uning ahamiyati, maqsadi, vazifalari va vakolatlari Ichki audit xizmati nizomida ko'rsatilgan.
Ichki audit xizmati nizomida Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.
18. Jamiyat ichki audit xizmati, ichki nazorat tizimining ichki auditi natijalari bo'yicha, Kuzatuv kengashining audit qo'mitasi oldida hisobot beradi. Jamiyat ichki audit xizmati Kuzatuv kengashining audit qo'mitasiga bo'ysunadi.
19. Quyidagi shaxslarni Jamiyatning ichki audit xizmatida mansabga tayinlanishi taqiqlanadi:
 - Iqtisod sohasida jinoyat yoki tartib qoidalarga bo'ysunmaslik jinoyati uchun sudlanib, javobgarlikni oxirigacha o'tamagan shaxslar;
 - Jamiyat ijroiya organi rahbari yoki a'zosi hisoblangan shaxslar;
 - Ta'sischisi (aksiyador, ishtirokchi), ijroiya organ rahbari yoki ishtirokchisi yoki Jamiyat raqobatchisi hisoblangan boshqa yuridik shaxsning xodimi hisoblangan shaxslar;

- Ichki audit xizmati tarkibiga kiradigan shaxslar uchun boshqa talablar kuzatuv kengashining audit qo'mitasi tomonidan belgilanishi mumkin.
- 20. Ichki nazorat tizimining kerakli darajada faoliyat yuritishi shuningdek xodimlarning professionalligiga bog'liq. Jamiyat, kadrlarni tanlash, yollash, o'qitish, tayyorlash va xizmat mansabini oshirish tizimi ularning yuqori malakasi ta'minlashiga va yuqori estetik standartlarga rioya qilinishiga ahamiyat qaratadi.

VI. ICHKI NAZORAT AMALIYOTLARI VA USULLARI

- 21. Jamiyat ichki nazorati amaliyotlari quidagilarni o'z ichiga oladi:
 - jamiyat boshqaruvining turli darajalarida o'zaro bog'liq va qarama – qarshi bo'lmagan maqsad va vazifalarini aniqlash;
 - jamiyat faoliyati maqsadlariga erishishiga xalaqit qilishi mumkin bo'lgan mavjud va kelib chiqish ehtimoli bo'lgan, operativ, moliyaviy, strategik va boshqa xavflarni aniqlash va tahlil qilish;
 - ichki nazoratning ahamiyatli tarkibini baholash;
 - biznes – jarayonlarning ichki nazorat tizimi samarasini baholash;
 - jamiyat tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlar ishining samarasini baholash va mezonlarini aniqlash;
 - moliyaviy va boshqa ma'lumotlarni avvalgi davr ma'lumotlari yoki faoliyatdan kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash;
 - voqea, amaliyot va o'tkazmalarni hisobga olishni to'g'ri usullaridan foydalanish;
 - aktivlar xavfsizligini tekshirish;
 - ichki nazorat amaliyotlarini to'g'ri hujjatlashtirish;
 - ichki nazorat tizimi sifatini doimiy ravishda baholash;
 - jamiyatning barcha hodimlariga ichki nazorat sohasida ularning ma'suliyatlarini tushuntirish;
 - jamiyat hodimlari orasida ularning asosiy majburiyatlarini (shu jumladan, amaliyotlarni maqullash va tasdiqlash, ularni hisobga olish, zahiralarni berish, aqlash va olish, amaliyotlarni tahlil qilish va tekshirish) taqsimlash;
 - faqatgina shunga vakolati bo'lgan shaxslar tomonidan amaliyotlarni tasdiqlash va bajarish;
 - ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun kerakli bo'lgan boshqa amaliyotlar.
- 22. Ichki nazorat amaliyotlarini o'tkazishda tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash, shuningdek, ichki nazorat amaliyotlarini bajarish uchun zarur boshqa usullardan foydalaniladi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

- 23. Ushbu nizom, shuningdek, unga qo'shimcha va o'zgarishlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
- 24. Ushbu Nizomga o'zgarishlar va qo'shimchalar jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, jamiyat tashqi auditori, Jamiyat taftish qo'mitasi, Jamiyat ichki audit xizmati, Jamiyat ijroiya organi rahbari taklifi bilan kiritiladi.
- 25. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ aktlari o'zgarishi natijasida ushbu Nizomning alohida moddalari u bilan zid kelib qolsa, bunday moddalr o'z kuchimi yo'qotadi, va Nizomga o'zgartirish kiritilgunicha, Jamiyat, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ aktlariga ko'ra ish tutadi.